

**IQTISODIY TARAQQIYOT JARAYONIDA SANOAT
TARMOQLARINI MODERNIZATSİYALASHNING
INVESTITSİYANING RO'LI**

Sh. Xolmo'minov

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi professori,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

Fayziev Jasur Xayrulla o'g'li

magistr,

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti,
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu tezisda iqtisodiy taraqqiyot jarayonida sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashning investitsiyaning ro'li haqida so'z boradi.

Kalit so'zi: bozor iqtisodiyoti, investitsiya jalb qilish, investor, investitsiya faoliyati, ichki moliyalashtirish, tashqi moliyalashirish, investitsion loyihalarni.

Abstract: This thesis talks about the role of investment in the modernization of industrial sectors in the process of economic development.

Keywords: market economy, investment attraction, investor, investment activities, internal financing, external financing, investment projects.

Аннотация: В данном тезисе говорится о роли инвестиций в модернизацию промышленных отраслей в процессе экономического развития.

Ключевое слово: рыночная экономика, привлечение инвестиций, инвестор, инвестиционная деятельность, внутреннее финансирование, внешнее финансирование, инвестиционные проекты.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini takomillashtirish davlat tomonidan olib boriladigan ichki moliya siyosati bilan o‘zaro bog‘liq jarayon hisoblanadi. Moliyaviy resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash hamda u yoki bu soha uchun sarflash yoki jamg‘arish respublikamizda qabul qilingan va faoliyat ko‘rsatib kelayotgan taqsimot tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Qonunchilikni rivojlanishi, adolatli va haqiqtparvar qonunlar qabul qilinishi hamda ularning hayotga tatbiq etish orqali bozor iqtisodiyotini yuksaltirishga, tadbirkorlikni keng ko‘lamda tarqalishiga qaratilsa, investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag‘larining kamayishi hisobiga boshqa mulkdorlarning mablag‘lari tez sur’atlarda o‘sib borishiga olib keladi.

Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish uchun eng avvalo ularning qonunda tasdiqlangan ma‘no, shakl mazmun va mohiyatini tushunib olish zarur. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni me’yoriy-huquqiy hujjat sifatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu hujjatda quyidagi tushunchalarni ko‘rsatib o‘tsak maqsadga muvofiq hisoblanadi, ushbu tushunchalar yangi tahrirga ko‘ra qayta ko‘rib chiqildi. Ya’ni investitsiyalar — qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagи faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

- investor — investitsiya faoliyati obyektlariga o‘z mablag‘larini investitsiya qilishni va boshqa investitsiya resurslarini jalb etishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;
- investitsiya majburiyati — investitsiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun investorning o‘zi qabul qiladigan majburiyati;

- investitsiya faoliyati — investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui;
- investitsiya faoliyati ishtirokchisi — investorning buyurtmalari bajarilishini ta‘minlovchi investitsiya faoliyati subyekti;
- reinvestitsiyalar — investitsiyalardan olingan, qonun hujjalarda taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagи faoliyat obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, roylati, litsenziya va vositachilik haqi, texnik yordam, texnik xizmat ko‘rsatish uchun to‘lovlар hamda boshqa shakldagi mukofotlar hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilishda asosiy ishlardan biri bu investorga kafolatlar bera olish hisoblanadi. Ya’ni investitsiyaning xavfsizligini ta‘minlashdir. Shu asosda qonun bilan belgilangan tartibda investitision faoliyat ishtirokchisi o‘ziga xos majburiyatlarni o‘z bo‘yniga oladi.

O‘zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarisha eng yetakchi hamda muhim vazifani O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bajaradi. Unga ko‘ra mamlakatdagi deyarli barcha investitsiyalarning jalb qilinishi, joriy qilinishi, boshqarilishi hamda keyingi yillar uchun istiqbolli loyihalarning ko‘rsatilishi ahamiyatga molikdir.

Ushbu dasturda deyarli barcha vazirliklar, qo‘mitalar va boshqa davlat organlari hamda chet el tashkilotlarining loyihalari o‘z o‘rnini topgan. Investitsion dastur haqida O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya faoliyati to‘g‘risida,,gi Qonunda aniq ta‘rif berilgan va u quyidagicha ko‘rinishda, O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirishga erishishga, mavjud tabiiy, mineral xom-ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan mamlakatning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tuzilmaviy qayta tashkil etish bo‘yicha asosiy

ustuvor yo‘nalishlar hamda strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini o‘z ichiga olgan, o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan choralar majmuidir.

Ichki moliyalashtirish (o‘z-o‘zini moliyalashtirish) investitsion loyihani amalga oshirishni rejalashtirayotgan korxonaning hisobiga ta‘minlanadi. Xususiy mablag‘lardan foydalanish o‘zida - ustav (aksiyadorlik) kapitali, shu bilan birga mablag‘lar oqimi, korxonaning faoliyati natijasida shakllanadigan, avvalo, sof foyda va amortizatsion ushlanmalarda namoyon bo‘ladi. Investitsion loyihalarni mustaqil byudjet yo‘li bilan ajratish xususan qat‘iy maqsadli xarakterga ega bo‘lib, investitsion loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan mablag‘lardan shakllanadi.

O‘z-o‘zini moliyalashtirish faqatgina kichik investitsion loyihalarda ishlatilishi mumkin. Keng kapital xajmli investitsion loyihalar, qoidaga asosan, faqat ichki hisobdan emas, balki tashqi manbalar hisobidan ham moliyalashtiriladi.

Ichki manbalar hisobiga investitsiyalarni jalb qilish usuliing quyidagi o‘ziga xos ijobiy xususiyatlari mavjud:

- yengil, oson, qulay va tezkorligi;
- to‘lov qobiliyati va inqirozga yuz tutish riskining pastligi;
- qarz va jalb qilingan manbalarni to‘lash zaruriyatining yo‘qligi bilan bog‘liq yuqori daromadliligi;
- ta‘sischilar tomonidan boshqarilishi va xususiylikning saqlanganligi; Salbiy xususiyatlari:
 - jalb qilinadigan mablag‘lar hajmining cheklanganligi;
 - xo‘jalik faoliyatidan xususiy mablag‘larning ajralishi;
 - investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ustidan nazorat

qilishdagi mustaqillikning cheklanganligi.

Tashqi moliyalashirish tashqi manbalar: moliyaviy institutlar, nomoliyaviy kompaniyalar, aholi, davlat, chet el investorlari mablag‘lari, shu bilan birga tashkilot ta‘sischilarining pul resurslarining qo‘sishimcha jamg‘armalar hisobiga amalga oshiriladi. U jalb qilingan (ulushli moliyalashtirish) va qarz (kreditli moliyalashtirish) mablag‘lar yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tashqi manbalar hisobiga investitsiyalarni jalb qilish usuliing quyidagi o‘ziga xos ijobiylari xususiyatlari mavjud:

- yirik masshtablarda mablag‘larni jalb qilishning imkonini mavjudligi;
- investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ustidan nazorat qilishdagi mustaqillikning mavjudligi.

Salbiy xususiyatlari:

- mablag‘larni jalb qilish jarayonining uzoq va qiyinligi;
- moliyaviy barqarorlik kafolatini taqdim etish zaruriyati;
- to‘lov qobiliyati va inqirozga yuz tutish riskining o‘sishi;
- qarz va jalb qilingan manbalarni to‘lash zaruriyatining mavjudligi bilan bog‘liq daromadning pasayishi;
- kompaniyani boshqarish va mulkning xususiyligini yo‘qotish imkonini mavjudligi.

O‘zining xususiy mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar emisiyasini amalga oshirishni ta‘minlay olmagan kompaniyalarning investitsion loyihalarini tashqi moliyalashtirishning eng samarali shakllaridan biri bo‘lib banklarning investitsion kreditlari paydo bo‘ladi. Asosan ushbu shaklning jozibadorligi quyidagicha tushuniladi, ya‘ni:

- moliyalashtirishning egiluvchan sxemasini ishlab chiqish imkoniyati;
- qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish va rasmiylashtirish bilan bog‘liq

xarajatlarning yo‘qligi;

- moliyaviy dastaklar samarasidan foydalanish;
- tannarxga qo‘shilgan xarajatlarga foiz to‘lovlari hisobidan foydadan soliqning kamaytirilishi.

Investitsion loyihalarni byudjet hisobidan moliyalashtirish, qoidaga asosan maqsadli dasturlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosida moliyalashtiriladi. U asosan byudjet mablag‘larini quyidagi asosiy shakllarda: amaldagi yoki yana yangi tashkil qilingan tashkilotlarning ustav kapitaliga investitsiyalar, byudjet kreditlari (shu jumladan investitsion soliq krediti), subsidiya va kafolatlar taqdim etiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish o‘z xarakteri bilan kreditorlarning keng tarkibi hamda konsorsiumlarni tashkil qilish imkonini beradi. Bank-agentlar - yirik moliyaviy institutlar ularning manfaatlarini ko‘rsatadi. Moliyalashtirish manbalari sifatida xalqaro moliyaviy bozorlar, maxsus kreditlar eksporti agentliklari, moliyaviy, investitsion, lizing va sug‘urta kompaniyalar, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining uzoq muddatli kreditlari, Xalqaro moliyaviy korporatsiyalar,

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, yetakchi xalqaro investitsion banklarning mablag‘lari jalb qilinadi.

Investitsiyalarni jalb qilishda yangi usullardan foydalanish kun sayin ortib bormoqda. Ulardan biri bu seleng hisoblanadi. Seleng bu lizingning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Seleng bu - ikki tomonlama jarayon bo‘lib, majburiyatlardan iboratdir. Aniq belgilangan to‘lov evaziga ma‘lum kompaniyaga mol-mulkni seleng qilishi va undan foydalanish huquqini berishi mumkin. Lekin mol-mulkni oluvchi uning egasi tomonidan birinchi so‘rovning o‘zida qaytarish huquqiga ega bo‘ladi. Moliyalashtirish shakliga ko‘ra seleng faoliyati bank faoliyatiga juda yaqin hisoblanadi.

Xulosa:

Investitsiyalar uchun zaruriy moliyaviy manbalarni topish iqtisodiy o'sish shartiga aylangan. Bu esa birinchi nabvatda iste'mol va jamg'arma nisbatiga bog'liq. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, o'z modelini amalga oshirayotgan O'zbekiston investitsiyalarni moliyalashtirishning samarali usullari, mexanizmlari va vositalarini izlashda davom etmoqda. Iqtisodiyotning barcha mulkchilik sektorlari doirasida investitsiya faoliyatining kuchayishi investitsiya loyihamini baholash va tanlovnii o'tkazishni takomillashtirish, investitsiyalash uchun zarur bo'lgan ishonchli moliyaviy manbalarni izlab topish bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'yadi. Mamlakat investitsiya faoliyatida ayniqsa xorijiy investitsiya ishtiroki kuchayishi bilan bu masalalar ahamiyati oshib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Uzoqov, E.Nosirov, R.Saidov, M.Sultanov. Investitsiya loyihamini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. -T.: —Iqtisod-moliya, 2006. 380 b.
2. A.S.Juraev, D.Y.Xo'jamqulov, B.S.Mamatov. Investitsiya loyihalari tahlili: O'quv qo'llanma -T.: SHarq. 2003. - 256 b..
3. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va respublikaning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning istiqboldagi ustuvor yo'nalishlari va 2010 yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlrga erishish omillari hamda dolzarb masalalari // Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlarining mintaqaviy seminari materiallari. T.: 2010.
4. Sh.Ergasheva, A.Uzoqov. Investnsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: «Iqtisod-moliya», 2008. - 208 b.

5. Бродский М.Н., Костенко СИ. Инвестиции как источник конкурентоспособности //Учение записки Института права С. Петербургского государственного университета экономики и финансов. /Под ред. А.А.Ливревского. 2001. Вип. 6. С.95.,.
6. Д.А. Ендиновицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина и др. Анализ инвестиционной привлекательности организации: научное издание/ М.: КНОРУС, 2010.- 376 с.